

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**



**XALQARO MUNOSABATLAR NAZARIYASI
FANINING O‘QUV DASTURI**

Bilim sohasi: 300000 – Ijtimoiy fanlar, jurnalistika va axborot
Ta‘lim sohasi: 310000 – Ijtimoiy va xulq atvorga mansub fanlar
Ta‘lim yo‘nalishi: 60310200 – Xalqaro munosabatlar

Toshkent-2025


Tashqi siyosat va xalqaro iqtisodiy
munosabatlar instituti direktori


G. Arifjanov

Xalqaro munosabatlar kafedrasi mudiri


S. Bo'ronov

ARM boshlig'i


M. Yuldasheva

Fan/modul kodi XMN15-612	O'quv yili 2027-2028	Semestr 5/6	Kreditlar 6/6	
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 6/6	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Xalqaro munosabatlar nazariyasi	144	216	360
2.	<p style="text-align: center;">I. Fanning mazmuni</p> <p>Fanning maqsadi: – talabalarda davlatlar, xalqaro tashkilotlar va nodavlat sub'yektlarining global siyosiy tizimdagi o'zaro ta'sirini tushuntirib beruvchi asosiy tushuncha, nazariya va yondashuvlar bo'yicha chuqur bilimlarni shakllantirishdan iborat.</p> <p>Fanning vazifasi: talabalarga xalqaro jarayonlarni tahlil qilish uchun zarur bo'lgan vosita va usullar to'g'risida tushuncha berish, ularni nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llashga o'rgatish.</p> <p>Xorij tajribasiga muvofiqligi: Mazkur fan dasturi xalqaro tan olingan reytinglarda birinchi top 300 talik ro'yxatga kiruvchi Kolumbiya universiteti (QS-33th) xorijiy tajribasini inobatga olgan holda takomillashtirildi.</p> <p>https://polisci.columbia.edu/sites/default/files/content/pdfs/JackSyllabus%206801%20Theories%20of%20International%20Relations.pdf</p> <p style="text-align: center;">II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari) Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p>1-mavzu. Xalqaro munosabatlar nazariyasi asoslari. Fanning maqsad va vazifalari.</p> <p>Xalqaro munosabatlar nazariyasi asosiy bo'limlari: Xalqaro munosabatlar nazariyasi tushunchasi. Xalqaro munosabatlar nazariyalarining rivojlanish tarixi. Asosiy maktablar: realizm, liberalizm, konstruktivizm, tanqidiy nazariyalar. Xalqaro tizimdagi anarxiya tushunchasi. Davlat asosiy aktor sifatida. Nazariyalarni baholash usullari. Xalqaro munosabatlarda normalar va g'oyalar roli. Struktura va agentlar.</p> <p>2-mavzu. Xalqaro munosabatlarning qonuniyatlari</p> <p>Xalqaro munosabatlar qonuniyatlarining tasnifi. Xalqaro munosabatlarning universal qonuniyatlari. Globallashuv davrida yuzaga kelgan muammolar. Demokratiyaning yoyilishi. Kuchlar va manfaatlari muvozanati</p> <p>3-4-mavzu. Realizm va neorealizm: hokimiyat (kuch) va konflikt. Klassik realizm va neorealizm tushunchasi. Xalqaro munosabatlardagi</p>			

kuch, omon qolish va xavfsizlik tahlili. Anarxiyaning davlatlar xatti-harakatlariga ta'siri. Davlatlar o'z kuchini oshirishga intiladigan asosiy aktorlar sifatida. Mojarolar - resurslar va xavfsizlik uchun kurash muqarrar natijasi sifatida. Xavfsizlik dilemmasi. Fukidid tuzog'i. Kuchlar muvozanati konsepsiyasi. Klassik realizm va neorealizm o'rtasidagi farqlar. Neorealizm tuzilmaviy omillarning roli.

Asosiy asarlar: Jon Mersheymer, "The Tragedy of Great Power Politics"; Kennet Uolts, "Theory of International Politics"; Hans Morgentau, "Politics Among Nations".

5-6-mavzu: Liberalizm va demokratik tinchlik nazariyasi.

Xalqaro munosabatlarda liberalizm tushunchasi. Tinchlik va hamkorlikni ta'minlashda xalqaro institutlar va tashkilotlarning roli. Demokratik tinchlik nazariyasi: demokratik davlatlar bir-biri bilan urush qilmasligi haqidagi ta'limot. Iqtisodiy o'zaro bog'liqlik va xalqaro huquqning mojarolarni kamaytirishga ta'siri. Demokratik davlatlarning xalqaro maydondagi o'zaro munosabatlarini tahlil qilish. Maykl Doyl va Bryus Rassetning demokratik tinchlik nazariyasiga bag'ishlangan ishlari va uning empirik tekshiruvi. Nazariyaning tanqidi va uning zamonaviy xalqaro munosabatlardagi dolzarbligi ko'rib chiqiladi.

7-8-mavzu. Konstruktivizm: identiklik, normalar va o'zgarish. Post-konstruktivizm: til, hokimiyat va bilish doirasidagi siyosat

Xalqaro munosabatlarda konstruktivizm tushunchasi. Xalqaro munosabatlarda g'oyalar, ijtimoiy normalar va identiklikning roli. Ijtimoiy konstruksiyalarning dunyo siyosatiga va xalqaro institutlarga ta'siri. Marta Finnemor va Ketrin Sikkinkning normalarning o'zgarishi haqidagi tadqiqotlari, normalarning tarqalish mexanizmlari va ularning xalqaro munosabatlarga ta'siri. Normalar dinamikasi konsepsiyasi va ularning xalqaro tartibdagi o'zgarishlarga ta'siri. Davlatlarning manfaatlari va ularning xalqaro sahnadagi xatti-harakatlarini shakllantirishda g'oyalar va qadriyatlarining roli. Til — haqiqat yaratuvchi vosita. Post-konstruktivizmning xalqaro munosabatlardagi roli.

9-10-mavzu. Konservatizm va Neokonservatizm nazariyalari

Konservatizm: tartib, an'analar va realpolitik. Xalqaro munosabatlarda konservatizm tushunchasi. An'analar va realistik yondashuvning roli. Barqarorlik va suverenitet. Neokonservatizm: kuch orqali qadriyatlar eksporti. Xalqaro munosabatlarda neokonservatizm tushunchasi. Demokratiya va kuch ishlatish. Davlat manfaatlari va global liderlik. Kagan'ning "Power and Weakness". Irving Kristol, Robert Kagan, Paul Wolfowitz asarlari.

11-mavzu. Imperializm va neoimperializm nazariyalari

Imperializm: kuch, ekspansiya va mustamlakachilik. Xalqaro munosabatlarda imperializm tushunchasi. Davlatlararo kuch tengsizligi va

ekspansionizm. Iqtisodiy manfaatlar va mustamlakachilik. Ijtimoiy va madaniy ustunlik g'oyalari. "Madaniy ustunlik", "Sivilizatsiya olib kelish" mafkuralar. Neoimperializm: bevosita bo'lmagan hukmronlik va iqtisodiy asorat. Xalqaro munosabatlarda neoimperializm tushunchasi. Moliyaviy va institutsional vositalar orqali nazorat. Transmilliy kompaniyalar va iqtisodiy mustaqillik yo'qotilishi. Madaniy va axborot ustunligi.

12-mavzu. Kolonializm va neokolonializm nazariyalari

Kolonializm: bevosita hukmronlik, ekspluatatsiya va madaniy assimilyatsiya. Xalqaro munosabatlarda kolonializm tushunchasi. Hududiy ekspansiya va siyosiy boshqaruv. Iqtisodiy ekspluatatsiya va resurslarning chiqarilishi. Madaniy ustunlik va assimilyatsiya. Neokolonializm: bevosita bo'lmagan nazorat va asimmetrik mustaqillik. Xalqaro munosabatlarda neokolonializm tushunchasi. Iqtisodiy qaramlik va tashqi siyosiy bosim. Transmilliy korporatsiyalar va global kapitalizm. Madaniy ta'sir va g'arbiy dominatsiya.

13-mavzu. Orientalizm nazariyasi

Xalqaro munosabatlarda orientalizm tushunchasi. Sharqni "boshqacha" qilish orqali nazorat qilish. Madaniy va akademik mustamlakachilik. Orientalizm va siyosiy geosiyosat. Postkolonial tanqid. rientalizm postkolonial nazariyaning markaziy tushunchasi sifatida. "Sharqni sivilizatsiyalash" g'oyasi.

14-mavzu. Oksidentalizm nazariyasi

Oksidentalizm: G'arbgga qarshi konstruksiya va madaniy qarama-qarshilik. Xalqaro munosabatlarda oksidentalizm tushunchasi. G'arbnii "boshqacha" qilish orqali qarshi turish. Antikolonial tartib va millatchilik masalalari. Mafkuraviy va siyosiy mafkura. Oksidentalizm faqat G'arbgga qarshi emas.

15-16-mavzu. Multikulturalizm va texnofeodalizm nazariyalari

Multikulturalizm: xilma-xillik, tan olish va teng huquqlilik. Multikulturalizm tushunchasi. Madaniy identiklikni tan olish. Huquqiy va siyosiy tenglik. Texnofeodalizm: raqamli hukmronlik, iqtisodiy ixtiyoriylik va yangi asorat shakli. Bozor o'rniga platforma, raqobat o'rniga hukmronlik. Ma'lumot — yangi mulk shakli. Ishchi emas, foydalanuvchi — yangi bo'ysunuv shakli. Yangi aristokratiya va asorat.

17-mavzu: Radikal demokratiya va demokratik konfederalizm nazariyalari

Radikal demokratiya: demokratik islohoti va yangi siyosiy ehtiyojlar. Demokratiyaning chuqurlashishi. Xalqning to'liq ishtiroki. Xalqning to'liq ishtiroki. Siyosiy radikalizm. Har xil tenglikni yaratish. Pluralizm va ko'p madaniylik. Chantal Mouffe. Ernesto Laclau. Antonio Negri. Radikal demokratiyaning amaliyotdagi roli. Demokratik konfederalizm: davlatdan

tashqari o'zini boshqarish va jamiyat markazli siyosat. Markazlashmagan boshqaruv. Ishtirokchi demokratiya.

18-19-mavzu. Feminizm va environmentalizm (ekologizm) nazariyalari

Environmentalizm: atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik ong va siyosiy

harakatlar. Xalqaro munosabatlarda environmentalizm tushunchasi. Ekologik ong va transmilliy ekologik masalalar. Xalqaro institutlar va ekologik siyosiy harakatlar. Feminizm: gender, hokimiyat va xalqaro munosabatlarda tenglik. Gender va xalqaro tizim. Xalqaro munosabatlar feminizm omili.

20-21-mavzu. Ichki siyosatning tashqi siyosatga ta'siri.

Ichki siyosiy tuzilmalar va rejimlar xalqaro munosabatlarga ta'siri. Davlatning ichki siyosiy tizimlari va rejimlarining tashqi siyosatga ta'siri, ya'ni qanday qilib ichki omillar xalqaro qarorlarni shakllantiradi. Gurevichning **The Second Image Reversed** asari, unda ichki omillarning davlatning tashqi siyosatiga ta'siri ko'rib chiqiladi. Fironning ichki auditoriyaning narxlari (Costs) haqida tadqiqoti, bu yerda davlat rahbarlarining ichki siyosatdagi qarorlarining xalqaro sahnaga qanday ta'sir qilishi tahlil qilinadi.

22-mavzu. Xalqaro munosabatlarda agentlik va tuzilma.

Xalqaro munosabatlarda agentlar (individlar yoki kollektiv aktorlar) va tizimli tuzilmalar (global anarxiya, xalqaro institutlar va boshqalar) o'rtasidagi o'zaro ta'sir bo'yicha nazariy muhokama. Agentlarning harakatlari tizimli sharoitlar tomonidan belgilanishi yoki ularning o'z irodasiga asoslanganligi masalasi. Aleksandr Vendt va Devid Leykning ishlarida agent-tuzilma muammosi. Vendt o'z ishida konstruktivistik yondashuvning ahamiyatini ta'kidlab, anarxiyaning tuzilmasi davlatlar o'rtasidagi ijtimoiy o'zaro ta'sirlarning natijasi ekanligini ko'rsatadi. Leyk esa, aktorlarning tizimli cheklovlar doirasidagi strategik tanlovini o'rganadi. Davlatlarning harakatlari qanday qilib tizilmalarni shakllantirishi va o'z navbatida tizilmalar ularning harakatlariga qanday ta'sir qilishi muhokama qilinadi.

23-mavzu. Anarxik tizimlarda strategiyalar va muzokaralar.

Xalqaro anarxiya sharoitida o'zaro strategik ta'sirlar muhokamasi, ya'ni davlatlar o'z xatti-harakatlarini markaziy hokimiyat bo'lmagan holatda qanday shakllantiradi. Davlatlar orasida o'zaro munosabatlarda muvozanat va xavfsizlikka erishish maqsadida muzokaralar olib borish va strategik o'yinlar. O'yinlar nazariyasining konsepsiyalari, jumladan, Tomas Shellingning **The Strategy of Conflict** asaridagi g'oyalar: ziddiyatlarni boshqarish uchun qo'rqitish va kuch ishlatish tahdidi orqali muzokaralarni olib borish. Shuningdek, davlatlar strategik qarorlar qabul qilishda o'z manfaatlarini va ehtimoliy natijalarni qanday hisobga olishini tahlil qilish.

24-25-mavzu. Globallashuv va uning muammolari.

Globallashuvning xalqaro munosabatlarga ta'sirini tahlil qilish, jumladan

uning iqtisodiy, siyosiy va madaniy jihatlari. Globallashuvning davlatlar, xalqaro institutlar va jahon iqtisodiyotiga ta'siri. Globallashuvning ijobiy tomonlari: xalqaro hamkorlikni kuchaytirish, iqtisodiy integratsiya, madaniy almashinuv va o'zaro bog'liqlik. Jozef Stiglits va Dani Rodrik asarlarida globallashuv jarayonlarining tanqidlari. Stiglits globallashuvning foydalari notekis taqsimlanishi natijasida ijtimoiy va iqtisodiy tengsizlikka olib kelishini ta'kidlaydi. Rodrik esa globallashuvning milliy suverenitet va iqtisodiy siyosat uchun cheklovlarini, shuningdek, u demokratik institutlar uchun qanday qiyinchiliklar tug'dirishini ta'kidlaydi. Globallashuv global va mahalliy manfaatlar o'rtasidagi ziddiyatlarni kuchaytirishi va uning rivojlanayotgan davlatlarga ta'sirini tahlil qilish.

26-27-mavzu. Xalqaro tashkilotlar: hamkorlik va mojarolar.

Xalqaro tashkilotlarning xalqaro hamkorlikni qo'llab-quvvatlash va mojarolarni oldini olishdagi roli. Xalqaro tashkilotlar, masalan, BMT va Jahon savdo tashkiloti, davlatlar o'rtasida nizolarni hal qilish, iqtisodiy va siyosiy hamkorlikni rag'batlantirish tajribasi. Robert Keohaynning **After Hegemony** asarida xalqaro hamkorlikni saqlashda xalqaro institutlarning roliga urg'u beriladi, hatto gegemon yo'qligida ham. Barnett va Finnemore xalqaro tashkilotlarning patologiyalari haqida gapiradi, ya'ni ularning kuch ishlatish va hukmronlik qilish orqali ma'lum cheklovlar va muammolarni keltirib chiqarishi haqida so'z yuritadi.

28-29-mavzu. Fuqarolik urushlari va xalqaro terrorizm.

Fuqarolik urushlarining va xalqaro terrorizmning sabablari va dinamikasini tahlil qilish. Fuqarolik urushlariga olib keluvchi asosiy omillar, jumladan, etnik va diniy ziddiyatlar, iqtisodiy tengsizlik, davlat institutlarining zaifligi va tashqi aralashuvlar. Jeyms Firon va Devid Leytin o'z ishlarida fuqarolik urushlari ko'pincha kuchsiz davlatlarda etnik bo'linish natijasida yuzaga kelishini ko'rsatadilar. Stafis Kalivas esa fuqarolik urushlaridagi zo'ravonlikni o'rganadi va uni ko'pincha qo'llab-quvvatlovchilarni safarbar qilish va raqiblarni bostirish strategiyasi sifatida ishlatilishini ta'kidlaydi. Xalqaro terrorizmning sabablari, jumladan, siyosiy marginalizatsiya, mafkuraviy radikalizm va terror tarmoqlarining xalqaro tarmog'i ham bu mavzuda muhokama qilinadi.

30-31-mavzu: Xalqaro munosabatlarda talqin qilish, signallar va idrokdagi xatolar.

Xalqaro siyosatda psixologik omillarning rolini o'rganish. Davlatlar bir-birini qanday qabul qilishlari va bu talqinlar tashqi siyosiy qarorlar qabul qilishda qanday muhim o'rin tutishi. Idrokdagi xatolar, masalan, boshqa davlatning niyatlarini noto'g'ri talqin qilish, ko'pincha mojarolarning kuchayishiga olib keladi. Robert Jervis o'z asarlarida idrok va signallar xalqaro inqirozlar va xavfsizlikka qanday ta'sir qilishini, ayniqsa noaniqlik

sharoitida, tahlil qiladi. Keren Yarxi-Milo davlat rahbarlari va razvedka xizmatlari raqiblarning niyatlarini qanday baholashini o'rganadi va bu jarayonda ma'lumotlarning ishonchligi va subyektiv qabul qilish masalalariga e'tibor qaratadi. Psixologik omillar, jumladan, hissiy reaksiyalar, kognitiv xatolar va noto'g'ri signal berish tashqi siyosatni shakllantirishda katta ahamiyatga ega bo'lib, kutilmagan oqibatlar olib kelishi mumkin.

32-33-mavzu. Zamonaviy xalqaro munosabatlarning muammolari va istiqbollari.

XXI asrda xalqaro munosabatlar duch kelayotgan muammolar. Xalqaro terrorizm global xavfsizlikka tahdid sifatida. Iqlim o'zgarishi va uning xalqaro munosabatlarga ta'siri, shu jumladan migratsiya va tabiiy resurslar uchun kurashlar. Kiberxavfsizlik muammolari va kiberhujumlarga qarshi kurash xalqaro hamkorlikning yangi sohasidir. Migratsiya oqimlarining xalqaro munosabatlarga va davlatlarning siyosiy barqarorligiga ta'siri.

34-mavzu. Xalqaro munosabatlar nazariyasida manfaat kategoriyasi
"Manfaat" kategoriyasi tahlili va klassifikatsiyasi. Manfaat borasida turli nazariy maktablar qarashlari

35-36-mavzu. Xalqaro munosabatlarda xavfsizlik kategoriyasi
Xavfsizlik darajalari va sektorlari. Xavfsizlikka kategoriyasining nazariy tahlili. Xavfsizlikni ta'minlashning zamonaviy shart-sharoitlari. Milliy xavfsizlikni ta'minlashga doir nazariy qarashlar

III. AMALIY MASHG'ULOTLARI BO'YICHA KO'RSATMA VA TAVSIYALAR

Xalqaro munosabatlar nazariyasi fanidan amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Xalqaro munosabatlar nazariyalarining rivojlanish tarixi.
2. Xalqaro munosabatlarning qonuniyatlari.
3. Realizm va neorealizm: hokimiyat (kuch) va konflikt.
4. Liberalizm va demokratik tinchlik nazariyasi.
5. Konstruktivizm: identiklik, normalar va o'zgarish. Post-konstruktivizm: til, hokimiyat va bilish doirasidagi siyosat.
6. Konservatizm va Neokonservatizm nazariyalari.
7. Imperializm va neoimperializm nazariyalari.
8. Kolonializm va neokolonializm nazariyalari.
9. Orientalizm nazariyasi.
10. Oksidentalizm nazariyasi.
11. Multikulturalizm va texnofeodalizm nazariyalari.
12. Radikal demokratiya va demokratik konfederalizm nazariyalari
13. Feminizm va environmentalizm (ekologizm) nazariyalari
14. Ichki siyosatning tashqi siyosatga ta'siri.
15. Xalqaro munosabatlarda agentlik va tuzilma
16. Anarxik tizimlarda strategiyalar va muzokaralar

17. Globallashuv va uning muammolari
18. Xalqaro tashkilotlar: hamkorlik va mojarolar
19. Fuqarolik urushlari va xalqaro terrorizm
20. Xalqaro munosabatlarda talqin qilish, signallar va idrokdagi xatolar
21. Zamonaviy xalqaro munosabatlarning muammolari va istiqbollari
22. Xalqaro munosabatlar nazariyasida manfaat kategoriyasi
23. Xalqaro munosabatlarda xavfsizlik kategoriyasi

IV. MUSTAQIL TA'LIM VA MUSTAQIL ISHLAR

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:

- o'tilgan mavzuni chuqur o'rganishlari uchun darslik, o'quv materiallari bilan faol ishlash;
- ma'ruza, amaliy mashg'ulotlar va imtihonlarga oldindan tayyorgarlik ko'rish, vaqtdan unumli foydalanish;
- fan bo'yicha mustaqil ta'lim topshiriqlarini belgilangan muddatlarda taqdim etishi;
- mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishda plagiat (ko'chirmakashlik)ga yo'l qo'ymasligi;
- kichik guruhlarda hamkorlikdagi mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishda jamoaning umumiy maqsadiga mos harakat qilishi, o'ziga yuklatilgan vazifalarni o'z vaqtida bajarishi.

Mustaqil ta'limni tashkil etishda fanning xususiyatini inobatga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- mavzu yuzasidan tahliliy ma'lumot (esse) tayyorlash;
- kurs ishi (loyihasi)ni bajarish;
- aniq mavzu bo'yicha tahliliy taqdimot (prezentatsiya) tayyorlash;
- berilgan muammoni keng tahlil qilish, unga ta'rif va xulosalarni berish;
- amaliyotdagi mavjud muammoning yechimini topish, test, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash orqali loyihalar ishlash ko'nikmasini shakllantirish;
- ilmiy maqola, tezislari va ma'ruza tayyorlash.

Shuningdek, "Xalqaro munosabatlar nazariyasi" fanidan mustaqil ish sifatida quyidagi mavzulardan berilishi tavsiya etiladi:

1. Marksizm va xalqaro iqtisodiy tizimlarni tahlil qilishdagi yondashuvlar.
2. Neorealizm va neoliberalizm: xalqaro xavfsizlikka yondashuvlardagi farqlar.
3. Xalqaro tashkilotlarning realizm va liberalizm nazariyalaridagi roli.
4. Globallashuvning an'anaviy xalqaro munosabatlar nazariyalariga ta'siri.
5. Konstruktivizmning tanqidi va rivoji: xalqaro munosabatlarda o'zgarishlar.
6. Liderlarning shaxsiy xususiyatlari va xalqaro munosabatlardagi roli.
7. Xalqaro huquq va uning turli nazariyalar doirasida qo'llanilishi.
8. Transmilliy korporatsiyalarning xalqaro munosabatlardagi ta'siri.
9. Zamonaviy xalqaro xavfsizlik tahdidlari: kiberxavf-xatarlar va iqlim o'zgarishlari.
10. Xalqaro siyosatdagi psixologik omillar va qaror qabul qilish.

11. Postmodern davrda xalqaro munosabatlar nazariyalarining rivoji va evolyutsiyasi.
12. Ko'p qutblilik sharoitida xalqaro munosabatlarning kelajagi.
13. Neoimperializmning zamonaviy shakllari: global moliya va transmilliy korporatsiyalar roli
14. Kolonializmning xalqaro munosabatlar tizimiga ta'siri
15. Neokolonializm: siyosiy mustaqillik va iqtisodiy qaramlik paradoksi
16. Postkolonial nazariyada "markaz-periferiya" munosabatlari
17. Global Janub mamlakatlari tashqi siyosatida neokolonial omillar
18. Orientalizm va G'arb tashqi siyosatining mafkuraviy asoslari
19. Oksidentalizm: G'arbg qarshi ideologik qarashlar va xalqaro munosabatlar
20. Multikulturalizm nazariyasining xalqaro munosabatlardagi ahamiyati
21. Migratsiya jarayonlari va multikultural siyosat: xalqaro tajriba tahlili
22. Texnofeodalizm nazariyasi va global siyosiy iqtisod
23. Raqamli platformalar va davlat suvereniteti masalasi
24. Radikal demokratiya nazariyasining asosiy g'oyalari
25. Liberal demokratiya va radikal demokratiya: taqqoslovchi tahlil
26. Demokratik konfederalizm nazariyasi va davlatga alternativ boshqaruv modeli
27. Demokratik konfederalizm va Yaqin Sharq siyosiy jarayonlari
28. Feminizm nazariyasining xalqaro munosabatlarga qo'shgan hissasi
29. Gender va xavfsizlik: feministik yondashuv tahlili
30. Urush va tinchlik masalalariga feministik nazariya nuqtai nazari
31. Environmentalizm va xalqaro xavfsizlik muammolari
32. Iqlim o'zgarishi va global siyosat
33. "Yashil diplomatiya" va barqaror rivojlanish
34. Milliy manfaat tushunchasining realizm nazariyasidagi o'rni
35. Liberal va konstruktivistik yondashuvlarda manfaat kategoriyasi
36. Xavfsizlik tushunchasining evolyutsiyasi: harbiydan inson xavfsizligigacha
37. Kengaytirilgan xavfsizlik konsepsiyasi va zamonaviy tahdidlar
38. Iqtisodiy va energetik xavfsizlik xalqaro munosabatlar kontekstida
39. Ekologik xavfsizlik va davlatlararo hamkorlik
40. Radikal demokratiya nazariyasining asosiy g'oyalari
41. Liberal demokratiya va radikal demokratiya: taqqoslovchi tahlil
42. Demokratik konfederalizm nazariyasi va davlatga alternativ boshqaruv modeli
43. Mahalliy o'zini-o'zi boshqarish va xalqaro siyosiy barqarorlik
44. Demokratik konfederalizm va Yaqin Sharq siyosiy jarayonlari
45. Feminizm nazariyasining xalqaro munosabatlarga qo'shgan hissasi
46. Gender va xavfsizlik: feministik yondashuv tahlili
47. Urush va tinchlik masalalariga feministik nazariya nuqtai nazari
48. Environmentalizm va xalqaro xavfsizlik muammolari

49. Iqlim o'zgarishi va global siyosat
50. "Yashil diplomatiya" va barqaror rivojlanish
51. Milliy manfaat tushunchasining realizm nazariyasidagi o'rni
52. Liberal va konstruktivistik yondashuvlarda manfaat kategoriyasi
53. Xavfsizlik tushunchasining evolyutsiyasi: harbiydan inson xavfsizligigacha
54. Kengaytirilgan xavfsizlik konsepsiyasi va zamonaviy tahdidlar
55. Iqtisodiy va energetik xavfsizlik xalqaro munosabatlar kontekstida
56. Ekologik xavfsizlik va davlatlararo hamkorlik

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan taqdimot tayyorlash tavsiya etiladi.

"Xalqaro munosabatlar nazariyasi" fanidan kurs ishi tayyorlash uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Xalqaro munosabatlar nazariyalarining rivojlanish bosqichlari va metodologik asoslari
2. XX–XXI asrlarda xalqaro munosabatlar nazariyasining transformatsiyasi
3. Xalqaro munosabatlarning asosiy qonuniyatlari va ularning nazariy talqini
4. Anarxiya tushunchasining xalqaro munosabatlar nazariyasidagi o'rni
5. Kuchlar muvozanati va xalqaro barqarorlik muammosi
6. Xalqaro tizimlarda o'zgarish va davomiylik masalasi
7. Klassik realizmda hokimiyat va milliy manfaat tushunchasi
8. Neorealizm va xalqaro tizim tuzilmasining davlat xulq-atvoriga ta'siri
9. Realistik yondashuvda xavfsizlik dilemmasi muammosi
10. Realizm va neorealizmda urush va tinchlik masalalari
11. Zamonaviy xalqaro mojarolarni realizm nuqtai nazaridan tahlil qilish
12. Liberalizm nazariyasining asosiy tamoyillari va evolyutsiyasi
13. Demokratik tinchlik nazariyasining empirik asoslari
14. Xalqaro institutlar va hamkorlik: liberal yondashuv
15. Liberalizm va globallashuv o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik
16. Konstruktivizmda identiklik va manfaatlarning shakllanishi
17. Normalar va xalqaro xulq-atvor: konstruktivistik tahlil
18. Xalqaro siyosatda ijtimoiy konstruksiyalar va o'zgarish
19. Post-konstruktivizm: til va diskursning siyosiy roli
20. Konservativizmning tashqi siyosatdagi nazariy asoslari
21. Neokonservativizm va AQSh tashqi siyosati
22. Mafkura va kuch ishlatish: neokonservativ yondashuv
23. Konservativ realizm va liberal intervensionizm
24. Neokonservativizm tanqidi va uning xalqaro oqibatlari
25. Imperializm nazariyasining klassik va zamonaviy talqinlari
26. Neoimperializm va global iqtisodiy tuzilma
27. Kolonializm va xalqaro munosabatlar tizimining shakllanishi
28. Neokolonializm: siyosiy mustaqillik va iqtisodiy qaramlik
29. Postkolonial nazariyalar va global tengsizlik muammosi
30. Edward Saidning orientalizm nazariyasi va xalqaro siyosat

31. Orientalizm va tashqi siyosat diskurslari
32. Oksidentalizm: G'arbiga qarshi mafkuraviy yondashuv
33. Orientalizm va oksidentalizm: taqqoslovchi nazariy tahlil
34. Multikulturalizm nazariyasining xalqaro munosabatlardagi ahamiyati
35. Migratsiya va identitet siyosati: multikultural yondashuv
36. Texnofeodalizm nazariyasi va global siyosiy iqtisod
37. Raqamli platformalar va davlat suvereniteti
38. Radikal demokratiya nazariyasining xalqaro siyosatga tatbiqi
39. Demokratik konfederalizm va davlatga alternativ boshqaruv modeli
40. Feminizm nazariyasining xalqaro munosabatlarga qo'shgan hissasi
41. Gender, xavfsizlik va urush: feministik tahlil
42. Environmentalizm va xalqaro xavfsizlik muammolari
43. Ichki siyosiy omillarning tashqi siyosatga ta'siri
44. Siyosiy institutlar va tashqi siyosat qaror qabul qilish
45. Agentlik va tuzilma muammosi xalqaro munosabatlar nazariyasida
46. Muzokaralar va diplomatiya xalqaro munosabatlarda
47. Globallashuv va milliy suverenitet muammosi
48. Globallashuvga qarshi tendensiyalar va xalqaro siyosat
49. Xalqaro tashkilotlarning hamkorlikdagi roli
50. Fuqarolik urushlari va xalqaro aralashuv
51. Xavfsizlikka noan'anaviy tahdidlar
52. Xalqaro munosabatlarda talqin va noto'g'ri idrok muammosi
53. Manfaat kategoriyasining realizm va liberalizmga talqini
54. Manfaatlarning ijtimoiy konstruksiyasi: konstruktivistik yondashuv
55. Xavfsizlik tushunchasining evolyutsiyasi xalqaro munosabatlarda
56. Ko'p qutbli dunyo va xalqaro tartib masalasi
57. Buyuk davlatlar raqobati va global barqarorlik
58. Iqlim o'zgarishi va global siyosiy kelajak
59. Texnologik taraqqiyot va xalqaro xavfsizlik
60. Xalqaro munosabatlar nazariyalarida kuch, manfaat va identitet
61. Klassik va tanqidiy nazariyalar: umumiy va farqli jihatlar
62. Xalqaro munosabatlar nazariyasining metodologik muammolari
63. Nazariya va amaliyot: xalqaro siyosatda qo'llanish masalasi
64. Xalqaro munosabatlar nazariyasining kelajakdagi rivojlanish yo'nalishlari

3.

V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)

Talaba bilishi kerak:

- Realizm, neorealizm, liberalizm, konstruktivizm, marksizm va tanqidiy nazariyalar kabi asosiy tushunchalar va yondashuvlar, shuningdek ushbu nazariyalar o'rtasidagi asosiy farqlar va o'xshashliklarni ***bilishi kerak***;
- Xalqaro munosabatlar nazariyalarining tarixiy rivoji va ular xalqaro siyosatdagi o'zgarishlarga qanday moslashgani;
- Xalqaro tashkilotlar xalqaro munosabatlarga qanday ta'sir ko'rsatishi va global muammolarni qanday hal qilishlari;
- Hozirgi global muammolar, masalan, xalqaro terrorizm, iqlim

	<p>o'zgarishi, kiberxavf-xatarlar va migratsiya, va turli nazariyalar ularni qanday tushuntirishi;</p> <ul style="list-style-type: none"> • Xalqaro munosabatlar nazariyalarini tahlil qilish uchun ishlatiladigan asosiy metodlar va yondashuvlar, jumladan, empirik tadqiqotlar, o'yinlar nazariyasi va ratsional tanlovga oid tahliliy <i>ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak</i>; • Nazariy tushunchalarni haqiqiy xalqaro voqealar va muammolarni tahlil qilishda, shuningdek, tashqi siyosiy strategiyalari va qarorlarini shakllantirishda qanday qo'llash <i>malakasiga ega bo'lishi kerak</i>.
4.	<p style="text-align: center;">VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • amaliy mashg'ulotlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5.	<p style="text-align: center;">VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, mustaqil ta'lim bo'yicha hamda joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ish va/yoki og'zaki imtihonni topshirish.</p>
6.	<p style="text-align: center;">VIII. ASOSIY VA QO'SHIMCHA O'QUV ADABIYOTLAR HAMDA AXBOROT MANBALARI</p> <p style="text-align: center;">Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Burchill, Scott, Andrew Linklater, Richard Devetak, Jack Donnelly, Matthew Paterson, Christian Reus-Smit, and Jacqui True. Theories of International Relations. 3rd ed. New York: Palgrave Macmillan, 2005. 2. Waltz, Kenneth N. Theory of International Politics. Reading, MA: Addison-Wesley, 1979. 3. Цыганков, Павел Афанасьевич. Теория международных отношений. 4-е изд. Москва: Гардарики, 2015. 4. Morgenthau, Hans J. Politics Among Nations: The Struggle for Power and Peace. 7th ed. Boston: McGraw-Hill, 2006. <p style="text-align: center;">Qo'shimcha adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 5. Sh.M. Mirziyoyev. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston. - Toshkent: O'zbekiston, 2024. 6. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo'lini qat'iy davom ettiramiz. 6-jild. - Toshkent: O'zbekiston, 2023 7. Sh.M. Mirziyoyev. Yangi O'zbekistonda erkin va faravon yashaylik. 5-jild.- Toshkent: O'zbekiston, 2023. 8. Mirziyoyev Sh.M. Inson qadri, uning huquq va erkinliklari, qonuniy

	<p>manfaatlar uchun. –Toshkent: O‘zbekiston, 2022.</p> <p>9. Sh.M. Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To‘ldirilgan ikkinchi nashri. - Toshkent: O‘zbekiston, 2022.</p> <p>10. Keohane, Robert O. After Hegemony: Cooperation and Discord in the World Political Economy. Princeton, NJ: Princeton University Press, 1984.</p> <p>11. Mearsheimer, John J. The Tragedy of Great Power Politics. New York: W.W. Norton & Company, 2001.</p> <p>12. Rosenau, James N. Turbulence in World Politics: A Theory of Change and Continuity. Princeton, NJ: Princeton University Press, 1990.</p> <p>13. Bull, Hedley. The Anarchical Society: A Study of Order in World Politics. New York: Columbia University Press, 1977.</p> <p>14. Finnemore, Martha, and Kathryn Sikkink. "International Norm Dynamics and Political Change." <i>International Organization</i> 52, no. 4 (1998): 887-917.</p> <p style="text-align: center;">Scopusdan maqolalar</p> <p>15. Wendt, Alexander. "Anarchy is What States Make of It: The Social Construction of Power Politics." <i>International Organization</i> 46, no. 2 (1992): 391-425.</p> <p>16. Mearsheimer, John J. "The False Promise of International Institutions." <i>International Security</i> 19, no. 3 (1994): 5-49.</p> <p>17. Jervis, Robert. "Cooperation Under the Security Dilemma." <i>World Politics</i> 30, no. 2 (1978): 167-214.</p> <p style="text-align: center;">Axborot manbalari</p> <p>18. https://www.foreignaffairs.com/</p> <p>19. https://www.cfr.org/</p> <p>20. https://www.brookings.edu/</p> <p>21. https://carnegieendowment.org/</p> <p>22. https://www.crisisgroup.org/</p> <p>23. https://www.thediplomat.com/</p>
7.	<p>Fanning o‘quv dasturi “Xalqaro munosabatlar” kafedrasida ishlab chiqilgan va 2025-yil 18-iyundagi 21-sonli bayonnomasi bilan ma’qullangan.</p> <p>O‘quv dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 2025-yil 28-iyundagi 11-sonli bayoni bilan tasdiqlangan.</p>
8.	<p>Fan/modul uchun ma’sul: Suyunova B.S. – Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti “Xalqaro munosabatlar” kafedrasida katta o‘qituvchisi, PhD</p>
9.	<p>Taqrizchilar: S.A.Jo‘rayev – Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti “Xalqaro munosabatlar” kafedrasida professori, s.f.d. E.S.Sultonova. – JIDU “Xalqaro munosabatlar” kafedrasida professori, s.f.d.</p>